

SAVOD O'RGATISH JARAYONIDA OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIKDA ISHLASH.

Asadova Shoxsanam Malik qizi

Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti talabasi

ORCID: 0009-0001-9722-6617

Email:shokhsanamkhusrov@gmail.com

Phone:+998970710821

Annotatsiya: Ushbu maqolada savod o'rgatish jarayonida ota-onalar bilan hamkorlikning ahamiyati yoritilgan. Bu jarayonda o'qituvchi va ota-onalar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning samarali shakllari, bolaning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishdagi ahamiyati va oiladagi ijtimoiy muhitning ta'lim jarayoniga ta'siri tahlil qilingan. Ota-onalarni savod o'rgatish jarayoniga jalb etishdagi metodlar, amaliy tavsiyalar hamda tajribalardan misollar keltirilgan. Mazkur maqolada savod o'rgatish sifatini oshirishga qaratilgan hamkorlikni kuchaytirish yo'llarini ochib berilgan.

Kalit so'z: savod o'rgatish, boshlang'ich ta'lim, ota-onalar bilan hamkorlik, o'qituvchi va ota-ona munosabati, ta'lim sifati, oila va maktab hamkorligi uy sharoitida savod mashqlari, o'quv jarayoni, pedagogik hamkorlik, metodik yondashuv.

Kirish: Savod o'rgatish – bu o'quvchining ta'lim olamiga kirib borishidagi eng muhim bosqichlardan biridir. Bu jarayon nafaqat maktabda olib boriladi, balki oilada ham davom etadi. Boshlang'ich ta'lim davrida o'qituvchi va ota-onalar o'rtasidagi samarali hamkorlik bolaning savod tez chiqishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalarning ta'lim jarayonidagi faolligi va o'qituvchi bilan hamkorligi bolalarda o'qishga qiziqish uyg'otadi, o'rganilgan bilimlarning mustahkamlanishini ta'minlaydi.

Shu sababli savod o'rgatish jarayonida ota-onalar bilan yaqindan ishlash, ularni bu jarayonga jalb etish ta'lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Asosiy qism: Boshlang'ich ta'limda savod o'rgatish jarayonida o'quvchilarning o'quv faoliyatidagi eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu bosqichda o'quvchilarda yozuv va o'qish ko'nikmalarini shakllantirish va o'quvchilarda tilga nisbatan ijobiy munosabatni rivojlantirish maqsad qilinadi. Bu jarayonning samaradorligini oshirishda o'qituvchining emas, balki ota-onalarning ham faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi.

Ota-onalar bilan hamkorlikda ishlash – bu o'quvchi ta'lim olish jarayonida oila va maktabning hamkorlikda ish yuritishi demakdir. Ayniqsa, savod o'rgatish bosqichida bu hamkorlik bolaning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularning mustaqil fikrlashini rag'batlantiradi va oilaviy muhitda o'quv ko'nikmalarini mustahkamlash imkonini beradi.

Hamkorlik quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

Ota-onalar bilan suhbat va maslahatlashuvlar o'tkazish – bola saviyasini o'rganish va unga individual yondashuvni belgilashda foydali bo'ladi. Uy sharoitida bolaga o'qish-yozishni o'rganishiga qanday yordam bera olishlari mumkinligini tushuntirish. Ota-onalarning farzandi haqida kuzatuvlarini eshitish va shu kuztuvlar asosida bolaga vazifalarni taqsimlash.

Uyga vazifalarni bajarishda ota-onalarning ishtirokini ta'minlash – bola darsda o'rganilgan bilimlarni uy sharoitida mustahkamlashi uchun zarur. O'qituvchi ota-onalarga bolaga vazifa berilganligini eslatishi lozim. Vazifalarni o'z vaqida bajarishga undash, shu bilan birga bolaga yaqindan berishi kerak.

Ota-onalar uchun seminar va treninglar tashkil etish – savod o'rgatishning zamonaviy uslublarini ularga tushuntirish orqali umumiy yondashuvni shakllantirish mumkin.

Kitob o‘qish kechalari, oila bilan o‘qish tadbirlarini tashkil etish – bolalar va ota-onalar o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini rivojlantiradi.

Doimiy muloqot – o‘qituvchi bilan ota-ona o‘rtasida muntazam va izchil aloqa bo‘lib, bola ta‘lim-tarbiyasi samaradorligida muhim ro‘l o‘ynaydi. O‘qituvchi bolaning savod o‘rgatish jarayonidagi yutuqlari va qiyinchiliklari haqida ota-onalarga doimiy xabar beradi. Ota-onalar o‘z farzandining uyda qanday o‘qiyotgani haqida o‘qituvchini xabardor qiladi.

Uy sharoitida savod mashqlari – bu jarayon maktabda olgan bilimlarini qayta mustahkamlashga qaratilgan mashg‘ulotdir. Ota-onalar bolaga uyda kitob o‘qib berishi, birga harf, so‘z, gap mashqlari qilishi mumkin. Bolani yozishga, so‘z topishga, ko‘proq suhbatga jalb etish savod ko‘nikmasini mustahkamlaydi.

Kitobxonlik muhitini yaratish - ota-onalar uyda bolaga mos kitoblar, jurnallar olib berishi, o‘qishga bo‘lgan qiziqishni oshiradi.

Oilada kitob o‘qish odati savodga bo‘lgan munosabatni ijobiy shakllantiradi.

Darslardan tashqari tadbirlarga jalb qilish - o‘qituvchilar ota-onalarni “kitob haftaligi”, “savod kuni”, “kitobxonlar uchrashuvi”, “kitobxonlar kuni”, “sevimli kitobim” kabi tadbirlar tashkil etilib o‘quvchilar jalb qilinsa, bola o‘zining o‘qishdagi muvaffaqiyatlarini ko‘rsatishga rag‘batlanadi.

Ijobiy munosabat va sabr - ota-onalar bolani tanqid qilishdan ko‘ra, har bir kichik yutug‘ini maqtashi, rag‘batlantirishi lozim. Bola topshiriqlarni to‘g‘ri bajarganida unga maqtov aytish, uni rag‘batlantirish yanada o‘qishga qiziqishini uyg‘otadi.

Savod o‘rganish - asta-sekin shakllanadigan jarayon, shuning uchun bu jarayonda o‘qituvchi va ota-onalarga sabr va o‘quvchini qo‘llab-quvvatlash juda muhim.

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ota-onalar bilan tizimli va samarali hamkorlik yo'lga qo'yilgan maktablarda o'quvchilarning savodxonlik darajasi yuqori, darslarga qiziqishi kuchli va nutqiy faolligi sezilarli bo'ladi. Bundan tashqari, bola o'z bilimini faqat maktabda emas, balki oilada ham mustahkamlab boradi, bu esa ularning o'quv faoliyatida mustahkam poydevor yaratadi. Hamkorlikdagi ishlarning ijtimoiy-psixologik ta'siri, ota-onalarning roli va ularga berilishi mumkin bo'lgan metodik ko'rsatmalar haqida fikr yuritiladi: Shuningdek, ota-onalar bilan hamkorlik o'quvchilarning psixologik holatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bola o'zining ta'lim jarayonida nafaqat o'qituvchisi, balki ota-onasining ham ishtirok etayotganini his qilganida, o'zini qadrlangan, e'tibor qaratilgan shaxs sifatida sezadi. Bu esa uning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi, darslarga bo'lgan ijobiy munosabatini mustahkamlaydi. Ko'plab pedagogik tajriba va ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktab bilan hamkorlik qiladigan ota-onalarning farzandlari bilim olishda faolroq, mustaqil fikrlashga moyil va savod o'rganishda ancha tez muvaffaqiyatga erishadi. Bunday oila a'zolari bolani qo'llab-quvvatlab, undan natija kutishadi, lekin shu bilan birga bolaning individual rivojlanish sur'atini hisobga olishadi. Aksincha, ota-onalarning befarqligi yoki haddan tashqari talabchanligi bolaning savod o'rganishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ota-onalar uchun quyidagi metodik tavsiyalar foydali bo'lishi mumkin:

- Bolaning har bir kichik yutug'ini qadrlang va maqtoiv bilan rag'batlantiring.
- Uy sharoitida bola bilan birga o'qish, harflarni tanish, so'z tuzish kabi mashg'ulotlar olib boring.
- Uyda muayyan vaqtni kitob o'qishga ajrating va bu odatni o'zingizni bolaga namuna sifatida ko'rsating.
- Bola xato qilsa, uni koyimang, balki sabr bilan to'g'ri yo'lga ko'rsating.
- O'qituvchilar bilan doimiy aloqada bo'ling, bolaning o'zlashtirishi, muammolari haqida maslahatlashib boring.

Shu tarzda ota-onalarning savod o'rgatish jarayonidagi faolligi ularning farzandlariga nafaqat o'quv, balki tarbiyaviy nuqtai nazardan ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Maktab va oila o'rtasidagi uzviy aloqa o'quvchilarda mas'uliyat hissini kuchaytiradi, ularni o'z taqdiriga befarq bo'lmagan, ongli shaxs sifatida shakllantiradi.

Xulosa: savod o'rgatish jarayoni – bu faqat o'quv dasturlarini o'zlashtirish emas, balki bolalarda mustahkam bilim asoslarini, o'qishga bo'lgan qiziqishni, mustaqil fikrlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantirishdir. Savod o'rgatishdavrini muvaffaqiyatli amalga oshirish o'qituvchilardan katta mas'uliyat, bilim va mahorat talab etadi. Bu murakkab, ammo muhim jarayonda ota-onalarning faol ishtiroki va o'qituvchilar bilan hamkorligi beqiyos ahamiyatga ega. Maktab va oila bir yo'nalishda harakat qilgan taqdirda, bola o'zini qo'llab-quvvatlanayotgan, himoyalangan, va eng asosiysi – qadrlangan inson sifatida his qiladi. Bu esa uning savod o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, psixologik barqarorligini ta'minlaydi va muvaffaqiyatli ta'lim olishi uchun zamin yaratadi. Shunday ekan, ota-onalarni faollikka undash, ularga zarur metodik tavsiyalar berish, muntazam muloqotni yo'lga qo'yish orqali savod o'rgatish jarayoni samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Bu boradagi tizimli yondashuv nafaqat bir nafar bolaning, balki butun jamiyatning intellektual salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Asosiy darsliklar va metodik qo'llanmalar:

- 1. Islomova M. va boshqalar. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.**
- 2. Abdullaeva R. Boshlang'ich sinflarda savod o'rgatish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2018.**

3. Qurbonova D. Ota-onalar bilan ishlash metodikasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.

4. Hasanova N. Savod o'rgatishda oilaning roli. – Toshkent: Ilm Ziya, 2019.

Ilmiy maqolalar:

. Xodjayeva D. "Savod o'rgatishda oila bilan hamkorlikning samarali shakllari", Boshlang'ich ta'lim jurnali, 2022, №3.

6. Usmonova G. "Ota-onalar bilan pedagogik hamkorlik asosida savod o'rgatish samaradorligini oshirish", Pedagogik izlanishlar, 2023.

7. Nazarova M. "O'quvchilarni savodga o'rgatishda ijtimoiy sheriklik asoslari", Ta'lim va taraqqiyot, 2021, №2.

8. S Arshad, K MM, MAM Sameem, S BA, B FN, SH A Begimkulova Assenssing the Efficacy of Bilingual Teachers in English as a Second Language Contexts: A Comprehensive Investigation in Sri Lanka. Library of Progress-Library Science, Information Technology and Compyuter 44 (3), 2024

Xalqaro manbalar (rus va ingliz tillarida):

9. Epstein, J. L. School, Family, and Community Partnerships: Preparing Educators and Improving Schools. – Routledge, 2018.

10. Compton-Lilly, C. Family Literacy Practices and Children's Literacy Learning. – Routledge, 2014.